

XOLERIK TEMPERAMENTLI BOLANING YETUK SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA TA'LIM-TARBIYANING AHAMIYATI

X. Bahodirova ¹

Annotatsiya:

Kalit so'zlar: individuallik, xarakter, temperament, temperament turlari, xolerik, affekt, affirmsiya.

doi: <https://doi.org/10.2024/3azgox95>

Biz istiqomat qiluvchi ushbu Yer sayyorasida biz bilan hamnafas yashovchi yuz minglab insonlar yashaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2024-yilga kelib yer yuzi aholisi 8 milliarddan oshgan. Bu ko'rsatkich 2011-yilga taqqoslanadigan bo'lsa, bir milliard miqdordagi tafovutni tashkil etmoqda. Prognozlar ko'rsatadiki, bu miqdor kun sayin o'zgarishda va o'sishda davom etmoqda va oldingiga nisbatan sezilarli darajada tez o'smoqda. Bejizga raqamlarga yuzlanmadik, boisi insonlar soni juda ko'p ekanligiga qaramasdan, bir-biriga aynan o'xshash ikki inson mavjud emas. Nega? Ne sababdan deysizmi? Negaki "individuallik" yakka shaxsni anglatib, hech bir inson takrorlanmasdir. Hattoki bir-biriga juda o'xshash, qobiliyatlari bir xil, muloqot jarayonida bir xillikka ega ikki insonda ham boshqa sifatlari jihatidan farqlarni kuzatish mumkin, misol uchun birgina temperament jihatidan olib qarash biz kutgan ayni javobni bera oladi.

Xarakter va temperament. Ko'pchilik insonlar bu ikki insonga taalluqli jihatni farqlashmaydi, almashtirib qo'yish holatlari kuzatiladi. "Xarakter" ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Xarakterdan farqli o'laroq, "temperament" hayot davomida orttirilmaydi, balki tug'ma holda bo'lib, inson u sifat bilan tug'iladi. "Temperament" grekcha so'zdan olingan bo'lib, "aralashma" degan ma'noni anglatadi. Bir so'z bilan aytganda, temperament inson shaxsining alohida xususiyati bo'lib, shaxsning emotsional qo'zg'aluvchanligi, psixik-faoliyat tezligi, his-tuyg'ularning ifodalanishi, muloqotga kirishuvchanlikni ifodalovchi, nisbatan barqaror tug'ma xususiyat hisoblanadi.

Temperament 4 turga bo'lib o'rganiladi: sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik. Keling maqolamizning tub asosini tashkil etuvchi ikkinchi temperament tipi haqida so'z yuritaylik. "Xolerik" grekcha so'zdan olingan bo'lib, ma'nosi "o't, olov" deganidir. Bu shuni anglatadiki, tanani "affektlar" boshqaradi. Haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, jarayonlar ustidan irodaviy nazoratlarning buzilishiga yetaklovchi (o'zini o'zi boshqarishni zaiflashtiruvchi), organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlar affektlar deb ataladi. Affektlar qisqa muddatli bo'lib, ular favquloddagi yong'inga, yarqiragan portlashga, to'satdan kelgan do'lga, to'fonga, kutilmagan silkinishga o'xshab ketadi.

Juda g'ayratli, ishga ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli, qizg'in emotsional portlash va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan inson xolerik deb ataladi. Xolerik temperament (harakatchan, serjahl va chaqqon)

¹ Bahodirova Xulkar, SamDCHTI talabasi

- hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan ajralib turadi. Xolerik temperamentli insonlarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida (mimikalarida), harakat va so'zlashuvlarida yaqqol ko'rinib turadi. Bu tip vakillari sabr-toqat kerak bo'ladigan hollarda o'zlarini tutib turishlari qiyin bo'ladi. Ular juda faol hayot kechirishga intilishadi, harakatlari va so'zlarida keskinlik, ba'zida esa qo'pollikni ham ko'rish mumkin. Ularning harakatlari fikrlaridan oldin yuradi, shuning uchun ular bir ishni qilib qo'yib, keyin mulohaza yuritadilar. Ular gohida xushchaqchaq va dilkash suhbatdosh, gohida esa serjahl va asabiy holda bo'ladilar. Ana shunday paytda ularni umuman gap tushuntirib bo'lmaydigan darajadagi qiyofada ko'rish mumkin.

Har bir temperamentga ega insonning o'quv jarayonida, bilim egallashda, do'stlar bilan, umuman, jamoa bilan muloqotda va shaxsiy hayotda kamchilik tomonlari va ustun jihatlari bo'ladi. Dastlab, maktab yoshidagi bolaning yomon jihatlari sifatida namoyon bo'luvchi xatti-harakatlaridagi o'ziga xos xususiyatlar haqida gaplashaylik.

"Xolerik"lar dars jarayonida bir joyda tinch o'tira olishmaydi, boshqalarga xalaqit berishlar, darsdan keyin esa tengqurlari o'rtasidagi bo'luvchi turli xil janjal va mushtlashuvlarning asosiy ishtirokchisiga aylanishadi. Bunday bolalar e'tibor markazida bo'lishni juda ham yoqtiradilar. Boshqaruvchilik, yetakchilik va liderlik qobiliyatlariga ega. Shular sababli xoleriklarning ko'pchilik qismida do'stlar soni qo'l bilan sanoqli bo'ladi. Chunki ular yonidagilar ustidan nazorat o'rnatishga, buyruqlar berishga, itoat ettirishga moyildirlar. Tabiiyki, bu narsa hammaga ham yoqavermaydi. Xuddi shu sababli ular bilib-bilmay dushmanlik bilan qarovchi, ularni ko'rolmaydigan hasadgo'ylarni o'zlariga chaqirib olishadi. Ular o'zlarida biror fan yoki sohaga oid bilim va ma'lumotlarga qarshi fikrli insonlarga duch kelganlarida (kim bo'lishidan qat'i nazar, hatto hokim yoxud yuqori mansab vakillari) 100 dan 99% holatlarda jon-jahdi bilan g'olib kelishga intiladilar va buni a'lo darajada uddalaydilar ham. Bahsda yutqazib qo'yish ular uchun o'lim bilan barobar deyishimiz mumkin. Ularning jahllari burnilarining ustida turadi, bunday holda ortiqcha gapirmaslik ma'quldir. Nafaqat maktabdagi, umuman har qanday joydagi qonun-qoidalarni yoqtirishmaydi. Ota-onalari so'ziga kirmaslik, o'z bilganidan qolmaslik, aka-uka, opa-singillar bilan bo'lib turuvchi doimiy kelishmovchiliklar ularning yana bir o'ziga xos sifatlaridir. Tabiatan tortinchoq emasliklari sabab, hech narsadan tap tortmaslik holatlari bo'lib turadi. Do'stlar yoki yaqin qarindoshlar bilan bo'lgan davralarda o'zidan katta kishilarning so'zini bo'lish, gapga gap qo'shish holatlari kuzatiladi. Achinarlisi shundaki, sodir etiladigan har qanday katta-kichik jinoyatlarning asosiy qismi xoleriklar tomonidan amalga oshiriladi.

Faqatgina salbiy taraflari bilan cheklanib qolmagan holda keling, bir qancha ustun jihatlarga to'xtalib o'tsak. Bular qatoriga bitmas-tuganmas energiya va o'ziga bo'lgan ichki affirmsiya (o'zini o'zi ishontirish, ma'no jihatdan oz bo'lsa-da, motivatsiyaga yaqin turadi) ga egaligi bilan boshqa tiplardan keskin farq qiladi. Kam uxlashadi va ish va vazifani bajarishga bo'lgan ilhom manbayi asosan yarim tundan keyin keladi. Barcha sohaga qiziqish, yangi jabhalarda o'zlarini sinab ko'rish ularning qiziqqonlik sifatini belgilaydi. Ortidan boshqalarni ergashtira olish va yangi, innovativ g'oyalarni ko'rsata bilish qobiliyatiga egadirlar. Berilgan vazifani imkon qadar tez va sifatli bajarishga harakat qilishadi.

Farzandlarida va o'quvchilarida xoleriklik sifatlarini ko'ra olgan ota-onalar va o'qituvchilar ularga erta maktab yoshidan e'tibor qaratishlari va salbiylikni o'zida mujassamlashtirgan tomonlarni kamaytirish uchun doim to'g'ri odatlarga bolani o'rgatib borishlari kerak. Misol uchun, bolaga boshqalar fikrini hurmat qilish muhimligi, gapga aralashish o'dob normalariga mos emasligi uqtirib borilishi va o'z jahlini bosa olish singari holatlarga yechim topish ko'nikmalari o'rgatilishi kerak. Bundan tashqari, bu kabi bolalarga

energiya va kuchlarini bekorchi narsalarga sarflashlariga yo'l qo'ymaslik, ularning bo'sh vaqtini biror bir sport mashg'ulotlariga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo qaysi sport turi ekanligi juda muhim rol o'ynaydi, karate, kurash, boks kabi jangovar ruhdagi sport turlari emas, balki suzish, jamoa bo'lib o'ynaladigan voleybol, basketbol, futbol kabilarga yo'naltirilsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Qo'shimcha ravishda fan o'qituvchi biroz ko'proq mehnat va vaqt talab qiluvchi vazifalarni o'quvchi zimmasiga yuklab qo'ysa, shu bilan bir qatorda ota-onalar ham uy yumushlarida jasorat va kuch talab etuvchi vazifalarni farzandiga topshirib, undan bu ishni ma'lum vaqtdan keyin qabul qilishlari uqtirilsa, bolasining vaqtini to'g'ri narsalarga yo'naltirishga yordam bergan bo'ladilar. Bu o'rinda, maqto'v juda ham muhim, ish yakuniga yetib u tekshirilgach, albatta rag'bat sifatida maqtab qo'yish joiz. Negaki xoleriklar maqto'vni juda xush ko'rishadi va bu bolaning kelajakda yanada katta vazifalarni muvaffaqiyatli qilib bajarishlarida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, xolerik bolani aqlini taniy boshlagan paytidan unga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish, to'g'ri ta'lim va tarbiya berishda va bu borada ularga namuna bo'lishda ota-onalar, yaqin insonlar va ustozlarning mehnati beminnatdir. Buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek - "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Umumiy psixologiya fanidan o'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand- 2020
- [2]. G'oziyev. E. G'. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010.
- [3]. David G. Mayers. Psychology. USA 2010.
- [4]. https://youtube/_oqLHTaBCs Temperamentning tarbiyadagi ahamiyati.